

## ABU ALI IBN SINONING TIBBIYOT SOHASIGA QO‘SHGAN HISSASI

**Buxoro davlat tibbiyot instituti talabasi  
Nutfulloyev Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi xizmatlari va tibbiyot sohasiga qo‘shgan hissalarini va asarlariga oid fikrlar yuritilgan.

**Annotation:** This article discusses the services of Abu Ali ibn Sina in the field of medicine, his contributions to the field of medicine and his works.

**Kalit so‘zlar:** Abu Ali ibn Sino, Afshona, tibbiyot, Avicenna, anatomiya, Galen, meditsina, chechak, vabo, o‘lat.

**Key words:** Abu Ali ibn Sina, Afshana, medicine, Avicenna, anatomy, Galen, medicine, smallpox, cholera, pestilence.

Abu Ali ibn Sino (Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino) 980- (370 hijriy) yilda Buxoro yaqinidagi Afshona<sup>1</sup> nomli qishloqda tavallud topgan. O‘z bilimi, ishlari va talanti bilan o‘z davrida Abu Ali Ibn Sino tez taniladi. U salomatlikni saqlash uchun, asosan kasallik va davolash profilaktikasiga e‘tiborini qaratgan - bu esa XX-XXI asrlarda sog‘liqni saqlashning asosiy prinsiplaridan biriga aylandi. Abu Ali ibn Sino amaliy tibbiyotni 2 qismga ajratadi. Birinchisi, sog‘lom tana rejimi, ikkinchisi esa kasal tana rejimi deb atalgan — bunda esa bemoming sog‘lom holatga qaytishi tushunilgan. Ibn Sino odam anatomiyasini juda yaxshi o‘rgangan. Tib qonunlarining birinchi kitobida suyaklar, muskullar, nerv tomirlari (arteriya va venalar) tuzilishi haqida, uchinchi kitobida esa ichki organlar va jinsiy organlar tuzilishi haqida yozilgan. Avicenna barcha organlarni oddiy (suyaklar, muskullar va paylar) va murakkab (jigar, taloq, o‘pka) va b.q. Umuman inson anatomiyasi o‘rganishda Ibn Sino Galenning fikrlariga tayangan, lekin Galenning ba‘zi fikrlarini to‘g‘rilagan. Masalan, u qon tomirlari, burun suyagi va yuqori jag‘ni tuzilishini to‘liq tasvirlab bergan. Faqat Ibn Sino odamlarda o‘mrov suyagining joylashishini ko‘rsatib bergan. Galenning yozishicha, oshqozon qorin bo‘shlig‘ining o‘rtasida joylashadi, Ibn Sino esa bu xatoni to‘g‘riladi va oshqozon qorin bo‘shlig‘ining chap sohasida va jigar ostida qiyshiq joylashganligini aytib o‘tgan.

Abu Ali ibn Sino birinchilardan bo‘lib, bosh miyada fikrlash va hissiyot markazlari joylashganligini aytib o‘tadi. Ibn Sinoning fikricha miyaning oldingi qismida hissiyot markazi, o‘rta qismida umumiy sezgirlik va orqa qismida esa xotira

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi Buxoro shahridan 30 kilometr shimoli-sharqda joylashgan qadimiy qishloq.

markazi joylashgan. Bemorlarni davolashda ularga shartli reflekslarni paydo qilish yoʻli bilan taʼsir qilgan, bu koʻp jihatdan akademik I.P.Pavlovning ishiga ham oʻxshaydi, masalan, zapomi yaʼni qabziyatni davolashda u quyidagicha maslahat beradi: “ichagingni aniq bir vaqtda boʻshatishga oʻrgan. Bir muncha vaqt oʻtgandan keyin bu holat odat tusiga kirib qoladi, va sen qabziyatdan qutulasan”. Ibn Sino tibbiyot savollariga javob topishda kuzatishga va tajribaga asoslangan. “Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fi-t-tibb») -ensiklopedik xarakterdagi asar boʻlib, unda qadimgi davr mediklarining koʻrsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan oʻzaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda boʻlaklar oqibatida paydo boʻlishini koʻrsatgan.U birinchi boʻlib chechakning yuqumliligiga eʼtibor qaratgan, vabo va oʻlatning farqini aniqlagan, moxoʻv kasalligining boshqalardan farqini koʻrsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni oʻrganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga oʻgirilgan koʻplab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat boʻlib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish taʼrifiga bagʻishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi oʻsimlik koʻrinishidadir “Tib qonunlari” boʻlib, asar beshta mustaqil kitoblardan iborat. Kitoblarning ikkinchi va beshinchisida dorishunoslikka oid maʼlumotlar yozilgan. Xususan ikkinchi kitobda 700 dan ortiq dori vositalariga tarif berilgan, ularning tayyorlash va qoʻllash usullari koʻrsatilgan. Beshinchi kitobida esa 275 ta murakkab dorilar bayon etgan. Bulardan tashqari yana 64 ta yurak kasalliklarida ishlatiladigan dorilarni koʻrsatgan. Ibn Sino bayon etgan murakkab dorilarning soni 400dan oshadi. Shu bilan birga olim tamonidan kimyoviy moddalar margumush, mis, oltingugurt, kumush va ularning birikmalaridan foydalanish ilk bor tibbiyotda foydalanilgan. Beshinchi kitobda esa unda murakkab dorilarni tayyorlash usuli, tanaga taʼsiri va istemol qilish usullari berilgan. Abu Ali ibn Sino bemorlarning davolashda dorilarning qoʻllash usullari hozirda ham saqlanib qolgan xattoki ananaviy usullar hisoblanadi. Ibn Sino sahrodan yigʻilgan dorilarning hammasi bogʻlardan yigʻilganga qaraganda kuchliroq, koʻpincha hajmi kichikroq boʻladi. Togʻ-toshloqlarda terilgan – undanda kuchliroq deb tarflanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, Asadulla Abdulla o‘g‘li. Tibbiyot tarixi: Tibbiyot Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A.Qodirov. —T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2005. — 176 b.
2. X.E. Rustamova, N.K. Stojarova, Sh.A. Abdurashitova, Q.Ch. Nurmamatova Tibbiyot tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X.E. Rustamova va boshq. - Toshkent. «O‘zkitobsavdo» nashriyoti, 2020. - 240 b.
3. Bekchonova Z. M. “Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi xizmatlari va zamonzviy tibbiyot”, //Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515., Multidisciplinary Scientific Journal // September, 2023., B-329-333.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu\\_Ali\\_ibn\\_Sino](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abu_Ali_ibn_Sino).